

## BADIIY ASARLARDA NOKONSTRUKTIV BO‘LAKLAR

Maxmudova Sevinch Abduxoliq qizi

TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13964680>

**Annotatsiya.** Tilshunoslikda nokonstruktiv bo‘laklar ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. Ularni tahlil qilish jarayonida biz badiiy ijod namunalariга murojaat qildik. Maqolada badiiy adabiyotda nokonstruktiv bo‘laklarning tutgan o‘rni hamda bu bo‘laklar asarni qanchalik boyitgani haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nokonstruktiv birliklar, undalma, kirish, kiritmalar, murojaat shakli.

### NON-CONSTRUCTIVE FRAGMENTS IN WORKS OF ART

**Abstract.** In linguistics, non-constructive clauses have been analyzed by many scientists. In the course of their analysis, we turned to examples of artistic creations. The article focuses on the role of non-constructive pieces in fiction and how these pieces enrich the work.

**Key words:** Non-constructive units, motivation, introduction, introductions, form of reference.

### НЕКОНСТРУКТИВНЫЕ ФРАГМЕНТЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА

**Аннотация.** В лингвистике неконструктивные предложения анализируются многими учеными. В ходе их анализа мы обратились к примерам художественных произведений. В статье рассматривается роль неконструктивных произведений в художественной литературе и то, как они обогащают произведение.

**Ключевые слова:** Неконструктивные единицы, мотивация, введение, введения, форма обращения.

Xalqimizda bir gap bor: “Gap-isboti bilan go‘zal”. Shunday ekan, bizning nutqimizda va badiiy asarlarimizda ifodalilik hamda ta’sirchanlikning o‘rni katta ahamiyatga egadi. Tilning asosiy vazifasi muloqotdir. So‘zlashuv jarayoni murojatsiz kechmasligi tabiiy. Shuning uchun tilshunoslikda muloqot jarayonida murojaatning psixologik jihatlari, murojaat ifodalash vositalari doimo tadqiq etib kelingan. (7,3).

Kimdir bilan suhbatlashsangiz, avvalo uning nutqiga, so‘z boyligiga e’tibor qarasiz, albatta. Suhbatdoshingizning nutqi ravon va ajoyib, ko‘ngilga yoqadigan bo‘lsa, siz uni eshitganingiz sari yana va yana eshitishni xohlayverasiz. Shuningdek, badiiy asarlarda ham shu kabi holatni kuzatsak, kitobxon asarni o‘qiyotganida asar qahramonlarining qay ahvolda, qanday muhitda ekanligini tez anglab oladi. Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida ham nokonstruktiv birliklarning o‘rni yo‘q emas, albatta.

V.V.Vinogradov, V.V.Babaytseva, L.Y.Maksimov, A.I.Efimov, B.M.Golovin, V.M.Aplatov kabi rus olimlari ishlarida murojaatning nutq jarayonidagi o‘rni haqida fikrlar bildirilgan.(7,4)

Nokonstruktiv birliklar o‘z ichiga kirish, kiritma hamda undalmalarni oladi.

Undalma-so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildirgan so‘z yoki so‘z birikmasi. U bildirayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. (1.222) U yig‘iq holda ham yoyiq holda ham kela oladi. (3.159-160) Masalan “Jimjitlik” romanida:

Cho‘qqilar jilvasiga ko‘pam mahliyo bo‘laverma, bolam. Bu yerda qashqirlar bor. (2.3)

Bu jumlada “bolam” degan undalma qatnashgan. Bu gapda undalma shaxsga murojaat qiladi va uning diqqatini tortish uchun xizmat qilyapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbek tilshunosligida murojaat shakli birliklari tilshunos olimlar Nargiza Axmedova va Zuhro Akbarovalar tomonidan o‘rganilgan. A.R.Sayfullayevning ilmiy-tadqiqot ishida murojaatning undalma sifatidagi ko‘rinishi, undalmaning umumiy tavsifi, leksik-semantik o‘ziga xosliklari, morfologik-sintaktik ifodalanishi hamda strukturasi bayon etilgan. (7,4-5)

-*Afsuski, Tolibjon ko‘z yosh to‘kib yig‘olmasdi.* (2.3) Bu gapda esa “afsuski” kirish so‘zi qo‘llangan. Afsuski, esiz, esizgina, attang kabi kirish so‘zlar achinish ma‘nolarini bildiradi. (3.159)

Kirish so‘z va kirish birikma so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikriga yoli uni ifodalash usuliga bo‘lgan munosabatini bildiruvchi so‘z va so‘z birikmasiga aytiladi. (1.223)

Yuqoridagi parchada Tolibjonning ko‘z yosh to‘kib yig‘lay olmasligini kirish so‘z bilan ta’sirchan ifodalab bergan. Shunchaki, “Tolibjon ko‘z yosh to‘kib yig‘lay olmasdi” deb hech qanday kirish so‘zlarsiz yozganda kitobxon asar qahramonining holatini tasavvur qila olmas edi.

Murojaat birliklari qatoriga kiruvchi undalmalarni Usmon Azim she’riyati misolida tahlilga tortdik. Usmon Azim she’riyatini jo‘shqin, ta’sirchan etgan sintaktik omillardan biri undalmalardir. Albatta, ularni shoirning – lirik qahramonning uslub tarzi, odamlar, narsa-hodisalarga bo‘lgan ko‘tarinki ruhdagi kayfiyati taqozo etadi. Ilk ijodidan boshlab to hozirgacha yaratiladigan she’rlarida undalmalar ishtiroki ustuvor vositalardan biridir. Shoirida o‘zgalarda kam uchraydigan bir xususiyat borki, bu ham bo‘lsa, bevosita undalmalarga daxldor.

Ya’ni, Usmon Azim lirik — meni undalmalari nafaqat insonga, uning muayyan tuyg‘ulari, masalan, muhabbatga, balki nabotot, maxluqot, mavjudot, tabiat hodisalariga ham qaratiladi va bu uning asarlari pafosiga alohida ko‘tarinkilik, teranlik bag‘ishlaydi.

Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, Usmon Azim lirikasida murojaat motivi hamma vaqt yetakchi ifoda usullaridan bo‘lib kelgan. Undagi undalma qo‘llashning erkin va ko‘p hollari quyidagi yo‘nalishlarda kuzatiladi:

- Insoniy his-tuyg‘ular, holatlar, a’zolar va qadriyatlarga qaratilgan undalmalar: odam, g‘ussa, sog‘inch, g‘am, sevgi, xotira, hasad, havas, anduh, baxt, qadr kabilarga;

- Nabotot olami narsalariga qaratilgan undalmalar: tabiat, kuz, qish, bahor, èz, maysa, chinor, terak, arg‘uvon, gul, tol va hokazolar;

- Odamdan boshqa maxluqot vakillariga: tulpor, ot, it, kapalak, oy, quèsh, yulduz, samo, qush, èmg‘ir, shamol va boshqalar;

- Ilohga murojaatlar: Xudovand, Xudo, Olloh, Tangri, Parvardigor, Yaratgan kabi sifatlar, ismlar ila murojaatlar qilish. Ayrim misollarga murojaat qilaylik:

*Gar uzun umrda Yashamoq shirin, Qolsam bo‘lmaydimi shu yozda, Hayot?* (—Novdalar...)

—*Yoz, deyman, - o‘girilib qaramaydi u, —Yoz...iml demoqlikka tilim bormaydi.* (—Osmon-keng...)

*O, kapalak! -o‘g‘ri – o‘g‘ri gulparast! Parizodim, o‘zingni teja – Vujudingni sarflamagin mast.* (—Qizg‘aldoqzor)

Shoir mazmunni ba’zan batamom undalmali motivda ifodalash orqali poetik jozibani kuchaytiradi:

*Jonim manim, Qalbim manim, Ko'zim manim, O'zga vujud aro tolgan o'zim manim, Yuzsiz qolgan bu dunëda yuzim manim, Kuzim manim – Biz xam zamonaning zaylidirmiz... (—Jonim manim...) Ushbu parchada undalmalar miqdorigina emas, ularning ayni bir vaqtda qofiyadoshlik hosil qilib kelishlari ham, undalmalarning o'z sifatdosh, aniqlovchilari bilan kelishlari ham diqqatga sazovordir.*

Ba'zan shoirning yaxlit, yagona undalmasi ega-kesimlilik munosabatini hosil qilib, murojaat his-hayajon quvvatini yuzaga chiqaradi:

*Dunyo – xizmatkorim! Buyuk ishq keltir...! (—Yoshlik) Shoir muayyan undalmalarni, u kimga yoxud nimaga qaratilganidan qat'i nazar, yarashiq undov so'zlar bilan birgalikda qo'llab, ma'no kuchini oshiradi:*

*– Yomg'ir yiqdi devorin,  
Bog' nechun qochmagaydir,  
Ey, do'st?  
Kim oldi ixtiërin –  
Nechun so'z ochmagaydir,  
Ey, do'st?...  
(—Ta'lim)*

Yoyiq undalmalar gohida shoir she'rining butun xulosasi, asosiy fikri, pafosini o'zida mujassam etadiki, bu hol ham ijodkorning ayni til vositasiga, nutq imkoniyatlariga g'oyatda erkin ëndashuvidan dalolat beradi. Chunonchi, —Meni hasrat yengdi... she'ri shunday xotimalanadi:

*Alvido! Ziyoda Hayotim manim – Besh kunlik dunyoda Rabotim manim!...*

Undovlar, undalmalar, ularning vazifalari zamiridagi turlituman ma'no ottenkalari ba'zan shoir she'riyatidagi butun turkum mazmun-mantig'ining yetakchi motiviga aylanadi. —Sabrning besabr parchalari turkumini bu usulning yorqin misoli deyish mumkin. Lirik qahramon —Shamolga, —Bog'ga, —Tog'ga, —Eyga, —Bechora joniga, —Toshga, —Gulga, —Soyga, —Ey!...Qorni ochga, —Yo'lovchiga, —Baliqqa, —Labimga, —Ildizga, —Yurakka, —Tuproqqa va boshqa narsalarga birma-bir murojaat qiladi. Har mitti she'r zalvorini mazkur undalmalar asosidagi falsafiy fikrlar belgilaydi:

*Tosh!... Buncha yumshoqsan, tosh! Boshimni urgani Hech narsa qolmadi dunyoda!...*

Yoki: *Rahmat, labim! Boldan voz kechgan labim, rahmat! Endi so'zlar yaralganiday qog'ozga tushmadi-da...*

Ushbu turkumdagi ba'zi she'rlarda esa ularda aks etaëtgan qahramonlar — nutqi tarkibida undalmalar ishtiroki kuzatiladi. Ayniqsa, undalmalar takrori shoir she'rlarida mazmun ta'sirchanligini orttirishga xizmat qiladi: *Bog', bu daraxtni nega quritding? sig'madimi bu sho'rlik shunday keng quchog'ingga? Qo'limdagi boltani esa Endi o'zing ovut, bog'...*

Shoir undalmalar qo'llashda novatorona yo'ldan boradi. She'r zamiridagi katta falsafiy fikrni ifodalashda yoyiq undalmalar poetik ko'lam kasb etadi.

Jumladan, —Mushkulot she'ri shunday undalmalari bilan xarakterlanadi:

*Umrida  
bir marta ham o'lmagan odam,  
sen bilan nima haqida suhbatlashay?  
Umrida bir marta ham tirilmagan odam, sen bilan-chi?*

Usmon Azim o'quvchining xaëliga ham kelmagan narsayu hodisalarga-da murojaatini yo'naltiradi. Uning lirikasi shu jihati bilan ham o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi va uni fikrlashga chorlaydi:

*Bu tongning salqini o'zgacha Necha kun qoldi, vaqt, kuzgacha? (—Bu tongning salqini...)  
Ranji firoq! Jabringda undim: Teranlikka tortdi bedoding,  
Yuksaklikka otdi barboding... Qanday go'zal zulmatga to'ldi Bo'm-bo'sh qolgan mening hayotim! (—Yo'q, jon kabi...)*

Misollardan ham ko'rinadiki, bu she'riyat uchun undalmalar shunchaki so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki murojaat vositasigina emas. Shoir favqulodda, hech kutilmagan narsalar, hodisalar, kechinmalarga ham xilma-xil mazmun va shakllardagi undalmalar bilan murojaat qiladi. Natijada fikrning, tashbeh, timsolning, obraz yoki asar pafosining jozibadorligi kuchayadi. Ayni paytda, she'riy nutq uchun undalmalilik borasida ham o'zbek tilining nihoyatda keng miqyosli imkoniyatlarga ega ekan.

Ko'rib turganimizday, o'zbek tilshunosligida undalma va murojaat shakli bilan bog'liq ilmiy ishlar mavjud. Umuman olganda, murojaat etiketning eng muhim ko'rinishlaridan hisoblansada, yuqoridagi ilmiy ishlarning birortasida uning ijtimoiy moxiyati alohida tadqiqot obyekti qilib olinmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, nutqimizdagi gaplarimizning ta'sirchanlik, ifodaviyligini oshirish uchun konstruktiv birliklar muhim. Shuning uchun, so'zlashuvda ham, yozma shaklda ham konstruktiv birliklarni ikkilanmasdan foydalanishimiz kerak.

## REFERENCES

1. S.Rahimov, B.Umurqulov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". T., "Moliya" nashriyoti, 2003. 272 b
2. Said Ahmad "Jimjitlik" roman- T.: Adabiyot va san'at nashr., 1989.-320 b
3. Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – Т.: —Шарқ. 1995
4. R.R.Sayfullayevav "Hozirgi o'zbek adabiy tili".-T.: "Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi", 2020-yil, 127-b
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.- Toshkent: O'zMU, 2007
6. [https:// n.ziyouz.com.uzbek nasri](https://n.ziyouz.com/uzbek/nasri).
7. Akbarova Zuhro. O'zbek tilida murojaat shakllari/ Z.Akbarova.-Toshkent: kademnashr, 2015.- 112b
8. S.Rahimov, B.Umurqulov. "